


“TASDIQLAYMAN”
Viloyat maktabgacha ta’lim
boshqarmasi boshlig‘i


X. Yusupova

«25» may- 2022-yil

**Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga
qaratib o’tkazilgan yig‘ilish bayoni**

Nº 13 -sonli

2022-yil 25-may

Namangan shahri

Raislik qiluvchi:

X. Yusupova - Boshqarma boshlig‘i

Oatnashdi:

Maktabgacha ta’lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig‘i O.Turdiyev va bosh mutaxassis B.Kodirov, Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi kotibiysi mudiri R. Abdullayev, bosh mutaxassisi E. Abdullayev, sud-xuquqiy masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi B.Karimov, boshqarma boshlig‘ining o'rinnbosari, bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi boshliqlari (ro'yxat asosida).

KUN TARTIBIDAGI MASALALAR:

I. Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni bajarilishi haqida

II. Boshqa masalalar.

(X. Yusupova, O.Turdiyev, R.Abdullayev, B.Karimov,..., X.Yusupova)

Yig‘ilishni boshqarma boshlig‘i X.Yusupova olib bordi.

Yig‘ilishni boshqarma boshlig‘i X.Yusupova ochdi va olib bordi. Yig‘ilish avvalida

Korruptsiyaga qarshi kurash doirasida Namangan viloyati Maktabgacha ta’lim boshqarmasi va tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo’limlari bilan birgalikda bir qator chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bunda viloyatdagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari faol ishtirok etib kelayotgani haqida aytib o’tildi.

Xususan, maktabgacha ta’lim tizimidagi kadrlarda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida olib borilayotgan ishlar, hodimlarni

Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda vacancy.argos.uz sayti orqali test jarayonlari va suhbat asosida ishga olish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oziq-ovqat ta'minotida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida bolalarni Autsorsing asosida sog'lom ovqatlantirish tizimini joriy etilgani hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillari bilan birgalikdagi samarali hamkorlik faoliyatini ta'minlanayotgani haqida yig'ilish ishtirokchilariga aytib o'tdi.

Shundan so'ng, Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi kotibi yati mudiri Ravshan Abdullayev, Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi kotibi yati bosh mutaxassisni Ergashali Abdullayev, Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi sud-xuquqiy masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi Bahodir Karimovlar qatnashib korrupsiyani oldini olishda qilinishi kerak bo'lgan ishlarga to'xtalib o'tdilar. Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi sud-xuquqiy masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi B.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi PF-6257-sonli "Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim vazifalardan biri etib belgilab qo'yilgani, ushbu illatga qarshi kurashish barcha sohalar qatori maktabgacha ta'lim tiziminining har bir bo'g'inida ham juda muhim vazifa etib belgilangan. Aniqrog'i, halollik, mehnatsevarlik, o'z kasbiga sadoqat har bir xodimning kundalik faoliyatiga aylanishi lozimligini, korruptsiya hamda uning salbiy jihatlari, maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik, unga qarshi munosib kurashish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, oldinda turgan dolzarb vazifalar haqida yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirib o'tdi.

Yig'ilish davomida Maktabgacha ta'lim vazirligining Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i Turdiyev Oybek Rasulovich va bosh mutaxassisni Kadirov Bahodir Botirovichlar ishtirok etib Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazoratini amalga oshirishda nazoratni yanada kuchaytirish lozimligi to'g'risida fikr bildirishdi. Boshqarma bosh mutaxassisni B.Kadirov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan maktabgacha ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi orqali olib borilayotgan ishlar,

korrupsiya oqibatida inson xuquq va erkinliklari qo‘pol ravishda buzilishi, qonunlarga hurmat ruhi pasayishi, iqtisodiy rivojlanish izdan chiqishi, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekti sifatida alohida olingan korruptionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldimi olish choralarida namoyon bo‘lishi yuzasidan gapirib o’tdi. U o‘z so‘zida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan yo’riqnomalarni tuman (shahar) lardagi barcha davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlariga to’la yetkazilib, targ’ibot ishlari amalga oshirilishi kerakligini aytib o’tdi.

Yig‘ilish davomida, boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari A.Yusupov tomonidan viloyat mакtabgacha ta’lim tizimida Mакtabgacha ta’lim vazirligining 2022-yil 6-martdagи ““Bolalar bog‘chasi” va “Nodavlat mакtabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish” axborot tizimlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 103-sон buyrug‘i ijrosini ta’minalash yuzasidanayrim sustkashliklarga yo‘l qo‘yilayotgani, nodavlat-bog‘cha.uz -tarbiyalanuvchilarning davomatini qayd etish tartibini joriy etilayotgani va ushbu jarayondagi kamchiliklarni bartaraf etish borasida tumanlarda mavjud muammolarni ta’kidlab o’tdi.

Kun tartibidagi masalalarni atroficha muhokamasi tashkil etilib, boshqarma bo‘lim rahbarlari tomonidan yo‘nalishlar kesimida hisobotlar hamda mavjud muammolar o‘qib eshittirildi.

Yig‘ilish kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib,

QAROR QILADI:

1. Mакtabgacha ta’lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig‘i O.Turdievning korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlар to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari (A.Yusupov) va bo‘lim boshliqlari (A.Yuldashev, Sh.Karimqulov, M.Madrahimov, N.Qambarova, N.Maxmudov, M.Yuldashev, A.Abduqayumov)lar o‘zlarining sohalaridan kelib chiqib, tuman (shahar) MTBlari bilan birgalikda ish tashkil qilish, berilgan topshiriqlarni ijrosini so‘zsiz ta’minalash vazifasi yuklatilsin.

3. Boshqarmaning yuridik bo‘lim boshlig‘i (Sh.Karimqulov), tuman (shahar) Mакtabgacha ta’lim bo’limlari bilan birgalikda:

Tuman (shahar) hududidagi barcha mакtabgacha ta’lim tashkilotlariga korrupsiyani oldimi olish yuzasidan targ’ibot ishlарini doimiy tashkil etish va nazorat qilish vazifalari yuklatilsin

Mакtabgacha ta’lim vazirligining @antikorr_mdo telegram boti orqali korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan murojaat qabul qilinishi mumkinligi barcha

maktabgacha ta'lif tashkilotlariga yetkazilsin.

4. Tuman (shaxar) Maktabgacha ta'lif bo'limlari mudirlariga:

30 mayga qadar tuman (shahar) hududidagi barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalar bog'chasi nodavlat-bog'cha.uz - tarbiyalanuvchilarning davomatini qayd etish tartibi tizimlariga tarbiyalanuvchilarni to'liq va mukammal kitirilishini ta'minlasin. Bunda

-Har bir maktabgacha ta'lif tashkilotidagi guruhlar va tarbiyalanuvchilar soniga;

-Tarbiyalanuvchilarning doimiy davomat qilib, dasturga joylanishiga;

-Tarbiyalanuvchilarning nodavlat-bog'cha.uz platformasiga fotolarini joylanishiga alohida e'tibor bersin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig'ining o'rinnbosari (A.Yusupov) zimmasiga yuklatilsin.

Bayonlashtiruvchi



A.Ahmadaliyev

**Maktabgacha ta'lif tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga
qaratib o'tkazilgan yig'ilishdan**

FOTOLAVHALAR





